

Qarshi davlat universitetida “Halollik to‘garagi” faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom

1. Umumiy tushunchalar

1.1 Ushbu Nizom "Halollik to‘garagi" (keyingi o‘rinlarda – To‘garak) ni tashkil etish va faoliyat yuritish tartibini belgilaydi.

1.2 To‘garakning to‘liq rasmiy nomi: Qarshi davlat universitetining "Halollik to‘garagi".

1.3 To‘garak Qarshi davlat universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) qoshida faoliyat yuritadi va universitetning tuzilmaviy bo‘linmasi hisoblanadi.

1.4 To‘garak o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi me‘yoriy hujjatlari, "Korrupsiyaga qarshi kurashish", "Davlat fuqarolik xizmati", "Odob-axloq qoidalari", "Manfaatlar to‘qnashuvi" to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.5 To‘garakning muhri, shtampi va alohida rekvizitlari bo‘lmaydi; barcha hujjatlar universitet nomi bilan rasmiylashtiriladi.

1.6 **Halollik** – arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, ruxsat etilgan, yo‘l qo‘yilgan, qonuniy, asosli, vijdonga muvofiq ma’nolarini anglatadi. Halollik to‘g‘rilik, adolat, sofdillik, samimiylilik, iymon so‘zlari bilan uyg‘un bo‘lib, inson ichki va tashqi dunyosining birligi, so‘zi bilan xatti-harakatining to‘g‘ri kelishini ifodalovchi ma’naviy-axloqiy fazilatdir.

1.7 **Halollik** insonning asosan ma’naviy fazilati sifatida e’tirof etilib kelingan. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, keyinchalik tor shar’iy qobiqdan chiqib, asta-sekin shaxs hayotidagi keng qamrovli axloqiy me’yorga aylandi va umuminsoniy fazilatga ko’tarildi. Bugungi kunda kasbiy halollik, ilmiy halollik, iqtisodiy halollik va akademik halollik tushunchalari keng qo‘llanilmoqda.

1.8 **Akademik halollik** - ta’lim jarayonida to’g’rilik, adolat va vijdonlilik tamoyillariga qat’iy rioya qilish; plagiatchilik, aldash va nohalol harakatlardan butunlay voz kechish.

1.9 **Kasbiy halollik** – tibbiyot xodimlari va talabalar uchun ayniqsa muhim bo‘lib, bemorga nisbatan vijdonlilik, to‘g‘rilik va javobgarlik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi.

1.10 **Korrupsiya** – davlat xizmatchilarining o‘z mansab mavqeidan shaxsiy manfaat ko‘zlash maqsadida noto‘g‘ri foydalanishi, jumladan poraxo‘rlik, davlat mol-mulkini talon-toroj qilish va boshqa huquqbuzarliklar.

1.11 **"Halollik vaksinasi"** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan g'oya bo'lib, davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlab olish va ularda halollikni mustahkam shakllantirish zarurligini anglatadi.

1.12 Halol amallarga quyidagilar kiradi:

mehnat bilan tirikchilik qilish, halol rizq topish;
yaxshi niyat qilish, yaxshi so'zlash, yaxshi amallar bajarish;
omonat va qarzlarni o'z vaqtida qaytarish;
vafodorlik, so'z bilan ish birligiga erishish;
mehr-muruvvatli, oqibatli, muhtojlarga yordam ko'rsatish.

1.13 Ushbu tamoyillar "Halollik vaksinasi" g'oyasining amaliy ifodasidir va har bir a'zo tomonidan qat'iy bajarilishi shart.

1.14 Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko'paysa, o'sha yerda baxt va farovonlik hukm suradi. Binobarin, halol odam vazifasiga mas'uliyat bilan yondashadi, qing'ir yo'llar orqali boylik orttirishni o'ylamaydi, ishi, xalqi va vataniga sodiq bo'ladi. Ushbu qadriyat to'garakning har bir a'zosi uchun yo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

2. "Halollik to'garagi"ning asosiy maqsad vazifalari.

2.1 **To'garakning asosiy maqsadi** – universitet talabalarida va professor-o'qituvchilarida halollik, ma'naviy poklik, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish; akademik va kasbiy halollik tamoyillarini ta'lim jarayoniga va kundalik hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

2.2 **To'garakning asosiy vazifalari:**

talabalar va hodimlar o'rtasida halollik, adolat va ma'naviy qadriyatlar to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurash, davlat xizmatida halollik standartlari va akademik halollik mavzularida treninglar, seminarlar, munozaralar va madaniy tadbirlar tashkil etish;

plagiatchilik, aldash va nohalol harakatlarga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

odob- axloq va kasbiy halollik bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

universitet ichidagi halollik muhitini mustahkamlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

boshqa oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar bilan halollik sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish.

2.3 To'garakni universitet rektori tomonidan tayinlangan rahbar boshqaradi.

2.4 Rahbar uchun asosiy talablar: yuqori ma'naviy sifatlar, pedagogik tajriba, tashkilotchilik qobiliyati va korrupsiyaga nisbatan murosasizlik.

2.5 To'garakda quyidagi lavozimlar nazarda tutiladi:

Rahbar – to'garakning umumiy faoliyatini boshqaradi, rejalashtiradi va hisobot beradi;

Kotib – yig'ilishlar bayonnomalarini yuritadi, hujjatlarni saqlaydi;

A'zolar – tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda faol ishtirok etadilar.

2.6 Yig'ilishlar kamida chorakda bir marta o'tkaziladi va a'zolarining kamida yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

2.7 To'garakka universitetning talabalari, magistrantlari, ordinatlari va professor-o'qituvchilari ixtiyoriy ravishda a'zo bo'lishi mumkin.

2.8 A'zolikka qabul qilish ariza asosida amalga oshiriladi.

2.9 To'garak a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

to'garakning barcha tadbirlarida ishtirok etish;

muhokamalarda fikr bildirish va ovoz berish;

to'garakning faoliyatiga doir taklif va mulohazalar kiritish;

rahbar va boshqa a'zolarga murojaat qilish.

2.10 To'garak a'zolarining majburiyatlari:

ushbu Nizom talablariga va halollik tamoyillariga rioya qilish;

to'garak faoliyatida faol ishtirok etish;

akademik halollik me'yorlarini qat'iy saqlash: plagiatchilik, aldash va firibgarlikka yo'l qo'ymaslik;

korruptsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanganda rahbariyatga xabar berish;

to'garakning nufuzini himoya qilish.

2.11 To'garakning asosiy faoliyat yo'nalishlari:

Ta'lim va targ'ibot – halollik tushunchasi va mazmuni, korruptsiyaga qarshi kurash, tibbiy axloq sohasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish bo'yicha ma'ruzalar, treninglar va bahs-munozaralar o'tkazish;

Ijodiy loyihalar – videorolik, infografika, maqola va ko'rgazmalar tayyorlash; "Halolning boshi bir sochiqqa sig'adi", "Halollik eng yuksak boylikdir" kabi hikmatli so'zlarni targ'ib etuvchi materiallar yaratish;

Profilaktika – plagiatchilik, aldash, poraxo'rlik va boshqa nohalol xatti-harakatlarga qarshi o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

Hamkorlik – Yoshlar ittifoqi, talabalar o'z-o'zini boshqarish organlari, huquq-tartibot organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikdagi tadbirlar;

Monitoring – universitetdagi halollik holatini kuzatib borish, anketa va so'rovlar o'tkazish orqali muammo va ehtiyojlarni aniqlash.

2.12 To'garak faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida fakultetlararo "Eng namunalik halollik to'garagi" tanlovini tashkil etish (samaradorlik va baholash mezonlarini qamrab olgan tanlov nizomini ishlab chiqish).

3. Rejalashtirish va hisobot tartibi

3.1 To'garak har o'quv yili boshida ish rejasini tuzadi va universitet rektori tomonidan tasdiqlatadi.

3.2 To'garakning faoliyati universitet budjeti mablag'laridan, homiylik mablag'lari va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

3.3 Mablag'lardan foydalanish universitetning moliyaviy hujjatlashtirish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

- 3.4 To'garakning rahbari har semestr yakunida universitet rektori (yoki Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i) oldida hisobot beradi
- 3.5 Yillik hisobot to'garakning ish rejasi bajarilishi, a'zolar soni, o'tkazilgan tadbirlar va erishilgan natijalarni qamrab oladi.
- 3.6 To'garakning faoliyati ustidan umumiy nazoratni universitet rektori yoki u vakolat bergan shaxs amalga oshiradi.
- 3.7 To'garakni qayta tashkil etish yoki tugatish universitet rektori buyrug'i bilan amalga oshiriladi.
- 3.8 To'garak tugatilganda uning hujjatlari belgilangan tartibda universitet arxiviga topshiriladi.
- 3.9 Nizom kuchga kirgan kundan boshlab oldingi tartibdagi hujjatlar bekor hisoblanadi.

Qarshi davlat universiteti “Halollik to‘garagi”ning ish dasturi

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur ish dasturi oliy ta‘lim muassasalarida “Halollik to‘garagi” faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. “Halollik to‘garagi” talabalar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish, halollik va shaffoflik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan ixtiyoriy jamoatchilik birlashmasi hisoblanadi.

1.3. To‘garak faoliyati O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur dastur asosida amalga oshiriladi.

2. DASTURNING MAQSADI

2.1. Talabalarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish.

2.2. Halollik, adolat va qonuniylik tamoyillarini keng targ‘ib qilish.

2.3. Yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish.

3. ASOSIY VAZIFALAR

3.1. Korrupsiyaning mazmun-mohiyati va salbiy oqibatlari haqida tushunchalarni shakllantirish.

3.2. Talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish.

3.3. Halollik madaniyatini targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish.

3.4. Talabalarni jamoatchilik nazoratiga jalb qilish.

3.5. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

4. FAOLIYAT YO‘NALISHLARI

4.1. Ma‘rifiy yo‘nalish

Ma‘ruzalar, seminarlar va treninglar tashkil etish;

Korrupsiyaga qarshi qonunchilikni o‘rgatish.

4.2. Targ‘ibot yo‘nalishi

Axborot materiallari (banner, buklet, videoroliklar) tayyorlash;

Ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot ishlarini olib borish.

4.3. Interaktiv tadbirlar

Davra suhbatlari, debatlar, viktorinalar;

“Eng halol talaba” tanlovlarini o‘tkazish.

4.4. Hamkorlik faoliyati

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar;

Korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik.

5. TO‘GARAK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

5.1. To‘garakka universitet talabalari ixtiyoriy ravishda jalb etiladi.

5.2. To'garakka rahbari universitet ma'muriyati tomonidan tayinlanadi.

5.3. To'garak faoliyati tasdiqlangan ish reja asosida amalga oshiriladi.

6. ISH REJASI (NAMUNA)

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul
1	“Korrupsiya va uning oqibatlari” mavzusida seminar	sana, oy	To'garak rahbari
2	Davra suhbatlari: “Halollik – inson qadriyati”	sana, oy	Talabalar kengashi
3	Viktorina va tanlovlar	sana, oy	Targ'ibot guruhi
4	Mutaxassislar bilan uchrashuv	sana, oy	Ma'muriyat

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

7.1. Talabalarda korrupsiyaga qarshi immunitet shakllanadi.

7.2. Halollik va adolat tamoyillariga amal qilish darajasi oshadi.

7.3. Universitetda shaffof va sog'lom muhit shakllanadi.

8. NAZORAT VA BAHOLASH

8.1. To'garak faoliyati doimiy monitoring qilinadi.

8.2. Har chorak yakuni bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

8.3. Samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi.

**Qarshi davlat universiteti “Halollik to‘garagi”ning
a‘zolari ro‘yxati**

№	Familiyasi, ismi va sharifi	Lavozimi
1	D.Ravshanov	Universitet yoshlar ittifoqi BT yetakchisi to‘garak rahbari
2	Sh.Karamova	Universitet Xotin-qizlar maslahat Kengashi va psixologik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i - to‘garak a‘zosi
3	J.Boysunov	Filologiya fakulteti dekan o‘rinbosari to‘garak a‘zosi
4	Sh.Karomov	Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi uslubchisi to‘garak a‘zosi
5	U.Do‘stmurodov	Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi uslubchisi to‘garak kotibi